



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 74-82 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

GLOBALASHUV SHAROITIDA XALQARO SUG'URTA BOZORINING O'RNI



Shanasirova Nodira Abdullaevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD "Audit" kafedrası dotsenti,

E-mail: n.shanasirova@tsue.uz

Boqulova Shahzoda

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi fakulteti,

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Tadqiqotda O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish yo'nalishlari, uning nazariy va amaliy asoslari hamda iqtisodiy tizimdagi o'rni tahlil qilindi. 2019–2023 yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida sug'urta mukofotlari, to'lovlar, kompaniyalar soni va aholining sug'urtalanganlik darajasi o'rganildi. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash va statistik usullar qo'llanildi. Natijada sug'urta tizimini raqamlashtirish, aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish hamda xalqaro tajribaga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari davlat siyosatini takomillashtirish va sug'urta kompaniyalari faoliyatini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xalqaro sug'urta, sug'urta turi, mukofoti, faoliyati, sug'urta badali, franshiza, qayta sug'urta, broker, sug'urta agenti, sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi.

Abstract: This study analyzes the development directions of Uzbekistan's insurance market, its theoretical and practical foundations, and its role within the national economic system. Based on statistical data from 2019–2023, key indicators such as insurance premiums, claims, the number of companies, and the level of population coverage were examined using analytical, comparative, and statistical methods. As a result, scientific recommendations were developed to enhance the digitalization of the insurance system, strengthen public confidence in insurance, and implement management mechanisms based on international best practices. The research findings have practical significance for improving state policy and developing the activities of insurance companies.

Keywords: international insurance, type of insurance, insurance premium, insurance activity, insurance contribution, deductible (franchise), reinsurance, broker, insurance agent, Insurance Market Development Agency.

Аннотация: В исследовании проанализированы тенденции развития страхового рынка Узбекистана, его теоретические и практические основы, а также место в экономической системе. На основе статистических данных за 2019–2023 годы изучены страховые премии, выплаты, количество компаний и уровень страхового покрытия населения. В исследовании использовались аналитический, сравнительный и статистический методы. В результате разработаны научные рекомендации по цифровизации страховой системы, повышению доверия населения к страхованию и

внедрению механизмов управления, основанных на международном опыте. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования государственной политики и развития деятельности страховых компаний.

Ключевые слова: международное страхование, вид страхования, страховая премия, вид деятельности, страховая премия, франшиза, перестрахование, брокер, страховой агент, агентство по развитию страхового рынка.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat sug'urta tizimini rivojlantirish uchun butun imkoniyatlarni ishga soladi, sug'urta tizimining rivojlanishiga yordam beradigan huquqiy asoslarini yaratadi, sug'urta kompaniyalarini tashkil etish uchun moliyaviy manbalarni qidirib topishga, ushbu kompaniyalarni litsenziyalash bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga ko'maklashadi. Insonning faoliyatiga uni o'rab turgan muhitning xo'jalik tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, jamiyatning rivojlanganlik darajasi, jamiyat a'zolarining madaniy-ma'rifiy tarbiyasi, hamda ularning moddiy jihatdan qay darajada ta'minlanganligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta tizimini rivojlantirish muhim ijtimoiy muammolarni yechishga xizmat qiladi. Sug'urta inson hayoti, ishlab chiqarish, ijtimoiy faoliyatning hamma sohalarini qamrab olib, shu bilan mamlakat iqtisodiyotida alohida o'rin egallab bormoqda. Sug'urta tizimini tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonunning 3-moddasiga muvofiq "Sug'urta-muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar" majmui tushuniladi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasida 2022-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga bag'ishlanib, maqsadlarning uchinchi yirik guruhi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlandi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalarini belgilab beradi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sug'urta sektorining rolini oshirish, iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug'urta yo'li bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o'rganish va muhokama qilish, fuqarolarga ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarini rivojlantirish va aholining sug'urta madaniyatini oshirish, sug'urta bozorini tartibga solishning prudensial normalarini takomillashtirish hamda sug'urta faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash borasida bir qancha maqsadlar kiritilgan. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi, global xavf-xatarlarning oshib borishi,

xalqaro sug'urta hamjamiyati, sohaning ekspertlari va tahlilchilari oldiga hal etilishi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan qator vazifalarni ilgari surayotganligi xorijlik mutaxassislar tomonidan alohida tilga olinmoqda.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili

Sug'urta bozori va sug'urta tizimi rivojlanishining nazariy hamda amaliy jihatlarini turli davrlarda xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlari sug'urta mexanizmlarining iqtisodiy mohiyatini, funksional vazifalarini hamda zamonaviy iqtisodiy tizimlardagi o'rnini ochib berishga qaratilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlar A. Aleksandrov, A. Arxipov, Yu. Axvlediani, V. Belix, I. Balabanov, S. Beryozina, A. Vagner, F. German, B. Gomellya, E. Krositalarning tadqiqotlarida sug'urta faoliyatining iqtisodiy tabiati, sug'urta risklarini boshqarish mexanizmlari, qayta sug'urtalash tizimining ahamiyati hamda sug'urta kompaniyalari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash omillari keng yoritilgan. Xususan, A. Vagner va F. German o'z ishlarida sug'urtaning iqtisodiy tizimdagi stabilizatorlik funksiyasi, ya'ni kutilmagan yo'qotishlar sharoitida iqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi roli haqida fikr yuritgan. Yu. Axvlediani esa sug'urta bozorining institutsional tuzilmasi va uni tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilib, davlat nazorati va raqobat muhitining uyg'unlashuvi zarurligini asoslab bergan.

Shuningdek, zamonaviy xorijiy adabiyotlarda sug'urta faoliyati raqamli transformatsiya jarayonlarida qanday o'zgarayotgani, "insurtech" texnologiyalarining joriy etilishi, kiberxavfsizlik sug'urtasi, ekologik sug'urta va mikro-sug'urta tizimlarining shakllanishi kabi yangi yo'nalishlar alohida o'rganilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar sug'urtaning nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy, innovatsion va investitsion funksiyalarini ham ochib bermoqda.

Mamlakatimizda sug'urta faoliyati va sug'urta bozorini rivojlantirishning nazariy, tashkiliy-huquqiy hamda amaliy masalalari M. Asqarova, G. Axunova, H. Boyev, T. Boymurotov, O. Jo'rayev, Sh. Imomov, M. Mirsodiqov, A. Nurullayev, Y. Tursunov, M. Xodjayeva, A. Shermuhamedov, X. Shennayev, R. Husanov, A. Yadgarovlarning ilmiy ishlarida batafsil tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida O'zbekiston sug'urta bozorining shakllanish jarayonlari, milliy qonunchilik bazasining takomillashuvi, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va milliy sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari o'z ifodasini topgan.

M. Asqarova sug'urta tizimini iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida asosiy moliyaviy instrument sifatida talqin etgan bo'lsa G. Axunova milliy sug'urta bozorida xorijiy investitsiyalar ishtirokini kengaytirishning afzalliklari va xavflarini o'rgangan. A. Yadgarov o'z tadqiqotlarida sug'urta bozorida raqamli transformatsiya, elektron sug'urta tizimlari va ularning nazorat mexanizmlari masalalariga e'tibor qaratgan.

Sug'urta munosabatlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlarda strategik ahamiyatga ega vazifa sifatida baholanadi. Barqaror sug'urta tizimi milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, investitsion muhitning yaxshilanishiga, aholining ijtimoiy himoyasining kuchayishiga hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois sug'urta sohasi iqtisodiyotni xavflardan himoya qiluvchi moliyaviy bufer mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy manbalarda sug'urtaning mohiyati ko'pincha iqtisodiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida talqin etiladi. Bu munosabatlar jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish, yo'qotishlarni qoplash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida shakllanadi. Shunday qilib, sug'urta insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan, iqtisodiy rivojlanish jarayonining ajralmas institutsional elementi sifatida qaraladi.

Sug'urta tizimi moliyaviy tizimning integratsiyalashgan shakli bo'lib, u global moliyaviy bozorlar bilan uzviy bog'liqdir. Jahon amaliyotida yirik sug'urta kompaniyalari o'zaro hamkorlikda birgalikda sug'urtalash (co-sug'urta) va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshiradi. Bu esa risklarni kengroq miqyosda taqsimlash imkonini beradi va butun tizimning barqarorligini oshiradi.

Ko'pgina mamlakatlarda xorijiy sug'urta kompaniyalarining milliy bozorga kirishiga imkon berilgan bo'lib, bu raqobatni kuchaytirish, xizmatlar sifati va moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Masalan, 1992-yildagi Maastrixt shartnomasi Yevropa mamlakatlari o'rtasida xorijiy kapital harakatiga bo'lgan barcha cheklovlarni bekor qilib, yagona Yevropa sug'urta bozorini shakllantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shunga qaramay, har bir mamlakat sug'urta bozorida milliy xususiyatlar saqlanib qolmoqda. Bular, avvalo, sug'urta sohasining tarkibiy tuzilishi, milliy ehtiyojlar va taklif etilayotgan sug'urta himoyasi turlari bilan belgilanadi.

Demak, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sug'urta tizimini rivojlantirish masalasi global va milliy miqyosda dolzarb bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Ilmiy manbalar tahlili sug'urta bozorining barqaror ishlashini ta'minlash uchun institutsional yondashuv, davlat siyosati, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlikni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada globallashtirish jarayonlari sharoitida xalqaro sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va ularning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqotda xalqaro sug'urta tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, hamda sug'urta xizmatlarining xalqaro moliya tizimidagi o'rni o'rganildi.

Metodologik asos sifatida tizimli va tahliliy yondashuvlardan foydalanilib, sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar - xalqaro integratsiya, kapital harakati,

moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlari hamda qayta sug'urta institutlarining faoliyati o'rganildi. Tadqiqotda Xalqaro sug'urta federatsiyasi (GFIA), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, shuningdek, 2019-2023 yillarga oid milliy va xalqaro sug'urta kompaniyalari ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Natija va tahlillar

Bugungi globallashuv jarayonlari xalqaro iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi, transmilliy kompaniyalar sonining ortishi, moliyaviy bozorlar o'rtasidagi integratsiya va xalqaro savdoning keskin kengayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o'zgarishlar xalqaro sug'urta bozorining ham izchil rivojlanishiga, uning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o'rnini kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, sug'urta bozori nafaqat risklarni boshqarish vositasi sifatida, balki global moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutlardan biri sifatida ham shakllanmoqda.

Globallashuv natijasida paydo bo'layotgan yangi turdagi xavf-xatarlar — pandemiyalar, kiber tahdidlar, global isish, tabiiy ofatlar, siyosiy beqarorlik va moliyaviy krizislar — xalqaro sug'urtaning rolini kuchaytirdi. An'anaviy sug'urta mahsulotlaridan tashqari, endilikda ixtisoslashgan, murakkab va xalqaro darajada faoliyat yurituvchi sug'urta xizmatlariga ehtiyoj ortmoqda. Ayniqsa, qayta sug'urta, kredit sug'urtasi, siyosiy risklar va kiberxavfsizlik sug'urtasi global miqyosda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlillar ko'rsatadiki, dunyo miqyosida faoliyat yurituvchi yirik xalqaro sug'urta kompaniyalari — masalan, Allianz, AXA, Zurich Insurance Group, Munich Re va Swiss Re — global sug'urta bozorining 60 foizidan ortig'ini egallab turibdi. Ular turli mintaqalarda filial va sho'ba korxonalar ochish orqali nafaqat o'z xizmat doirasini kengaytirmoqda, balki mahalliy sug'urta bozorlariga ilg'or texnologiyalar, standartlar va boshqaruv tajribasini olib kirishmoqda. Shu jihatdan, ularning bozordagi ishtiroki ijobiy bo'lsa-da, ayrim hollarda mahalliy kompaniyalar uchun raqobat sharoitini og'irlashtirishi mumkin.

Sug'urta sektori — moliyaviy tizimning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u investitsiyalar oqimini boshqarish, moliyaviy vositalar yaratish, aholi va korxonalarni turli xavflardan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi hisobotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta sektori yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 6-8 foizini tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 1-3 foiz atrofida. Bu esa xalqaro sug'urta bozorining rivojlanayotgan davlatlar uchun qanday salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, ushbu sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlik, investitsiya jozibadorligi va islohotlar samaradorligini oshirish mumkin.

Oxirgi yillarda sug'urta sohasida raqamlashtirish va sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar (big data) kabi texnologiyalarning joriy etilishi sektorga tub burilishlar olib keldi. Masalan, smart-kontraktlar yordamida avtomatik tarzda polislar tuzilishi yoki zarar qoplamasining to'lanishi, foydalanuvchiga qulay interfeyslar orqali xizmatlar ko'rsatish sug'urta xizmatlarining ommalashuviga sabab bo'lmoqda. Bu esa xalqaro sug'urta kompaniyalarining tezroq rivojlanishiga, bozor ulushini kengaytirishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kompaniyalarning o'z faoliyatini davom ettirishida muhim omil bo'ldi.

Shunga qaramay, xalqaro sug'urta bozorida bir qator tizimli muammolar ham mavjud:

- Raqobatning haddan tashqari kuchayishi natijasida narxlar pastlab, kompaniyalar uchun foyda marjasi kamaymoqda.
- Yirik xavflarni qayta sug'urtalash jarayonida ishtirok etayotgan kompaniyalarda likvidlik muammolari yuzaga kelmoqda.
- Raqamli transformatsiya darajasining turlicha bo'lishi global kompaniyalar bilan mahalliy sug'urta subyektlari o'rtasida tengsiz raqobatga olib kelmoqda.
- Ayrim mintaqalarda xalqaro kompaniyalarning bozorda hukmronlik qilish holatlari milliy iqtisodiy manfaatlarga tahdid solmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozori ham global tendensiyalardan orqada qolmay, izchil ravishda rivojlanmoqda. So'nggi yillarda sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, chet ellik investorlar uchun qulay muhit yaratilmoqda, davlat sug'urta kompaniyalari xususiyashtirilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik, xorijiy kompaniyalar ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish kabi choralar ko'rilmoqda. Bu esa O'zbekiston sug'urta bozorining xalqaro tizimga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda.

Biroq, hali-hanuz quyidagi muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda:

- Sug'urta madaniyatining pastligi.
- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etishda muammolar.
- Mutaxassislar yetishmovchiligi.
- Kapital yetishmasligi va qayta sug'urtaning cheklanganligi.

Bu muammolarni hal etish uchun xalqaro tajribalarni o'rganish, texnologik hamkorlikni kengaytirish va ishonchli xorijiy investorlarni jalb qilish muhim hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Sug'urta bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, eng avvalo, uning makro va mikrodarajadagi iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini aniqlash hamda bu o'zaro bog'liq jarayonlarning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishsiz amalga oshirish mumkin emas. Sug'urta iqtisodiy tizimning ajralmas qismi sifatida nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiyotda mavjud xavf va

qaltisliklarni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida sug'urta bozorining hozirgi holati, mavjud muammolari hamda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari chuqur tahlil qilindi va quyidagi ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, sug'urtaga tizimli yondashuv zarurligi aniqlanib, bu yondashuv ikki asosiy yo'nalishni qamrab oladi.

- Bir tomondan, u iqtisodiy munosabatlar subyektlarining mol-mulkini himoya qilish, fuqarolarning shaxsiy manfaatlari va ijtimoiy maqomini saqlab qolish, shuningdek, ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat turlarida yuzaga keladigan ehtimoliy xavf va yo'qotishlarni kamaytirish bilan bog'liq.
- Ikkinchi tomondan esa, sug'urta tizimi tarmoq siyosati, sug'urta kompaniyalarining strategik rivojlanish yo'llari, ularning moliyaviy barqarorligi hamda tashqi va ichki iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur yondashuv sug'urta kompaniyalari faoliyatini faqat tijorat nuqtai nazaridan emas, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi va ijtimoiy himoya tizimining ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda kapital bozorining tarkibiy qismi, investitsion resurslarni shakllantiruvchi moliyaviy institut sifatida faoliyat yuritadi.

Ikkinchidan, sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va uning ikki tomonlama tabiati aniqlab berildi

- Sug'urtalovchi nuqtai nazaridan, sug'urta – bu foyda olishga yo'naltirilgan biznes sohasi, ya'ni moliyaviy xizmatlar bozorida o'z o'rniga ega iqtisodiy faoliyat turi.
- Davlat nuqtai nazaridan esa, sug'urta – bu aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi avariya, transport hodisalari, pandemiyalar yoki boshqa favqulodda holatlar natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlarni qoplash vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, sug'urta davlatning iqtisodiy xavfsizligi va milliy boylikni saqlab qolish tizimining muhim bo'g'ini sifatida qaraladi.

Uchinchidan, sug'urta bozorini samarali rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan sug'urta standartlari (IAIS, IFRS 17 va boshqalar)ni milliy sharoitga moslashtirish.
2. Davlat nazorati va tartibga solish tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar asosida risklarni boshqarish va monitoring mexanizmlarini joriy etish.

3. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning kapital yetarliligi va investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash.
4. Aholining sug'urta madaniyatini oshirish, ixtiyoriy sug'urta turlarini ommalashtirish va ularni iqtisodiy rag'batlantirish.
5. Innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish, xususan, raqamli sug'urta (insurtech), mikro-sug'urta, ekologik sug'urta va kiberxavfsizlik sug'urtasi yo'nalishlarini rivojlantirish.
6. Sug'urta bozorida raqobat muhitini shakllantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish.

Shunday qilib, sug'urta bozorining barqaror rivojlanishi uchun tizimli yondashuv, institutsional islohotlar va innovatsion boshqaruv usullarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat iqtisodiyotdagi xavflarni kamaytiradi, balki aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlaydi va moliyaviy tizimning barqaror faoliyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022 -2026-yillargamo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasito'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son
- 3.Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi. –Toshkent. Yangi asravlodi,-2005
- 4.Shermuhammedov A., Oxunova G., Jo'rayev O. Xalqaro transport sug'urtasi.-T.:TDIU,2000
- 5.Shennayev X. Sug'urta bozori nima?// O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.-Toshkent 1998
- 6.Jumaniyozov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109-116.
- 7.Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.
- 8.Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.

9.Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.

10.Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.

11.<https://imda.uz>

12.<https://www.insuranceeurope.eu/publications/2674/european-insurance-preliminary-figures-2021/>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

